



"OILA VA XOTIN-QIZLAR" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

# MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in  
Central Asia*  
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в  
Центральной Азии*  
международный научный рецензируемый журнал

**2024/1 (10)**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining  
2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan  
o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya  
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy  
nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha  
doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin  
bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.*

**DOI: 26739/2118-9998**

**ISSN 2049-3630**

**TOSHKENT**

#### TAHRIR HAY'ATI RAISI:

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

#### TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*  
**SAIDOVA Galina Karimovna** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich** – *psixologiya fanlari doktori, professor.*  
**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**BEKMURADOV Adham Sharipovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna** – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*  
**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*  
**RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**SAIDOV Akmal Xolmatovich** – *yuridik fanlari doktori, professor.*  
**YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna** – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*  
**TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna** – *tibbiyot fanlari nomzodi.*  
**UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**ZIYAYEV Azamad Xamidovich** – *tarix fanlari doktori, professor.*  
**ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li** – *psixologiya fanlari doktori.*  
**TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

#### ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

#### ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Нарбаева Танзила Камаловна** – *доктор социологических наук, профессор.*  
**Сайдова Галина Каримовна** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Шоумаров Гайрат Бахрамович** – *доктор психологических наук, профессор.*  
**Абдураманов Хамид Худайbergenovich** (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Бекмуратов Адхам Шарипович** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Маъруфова Гулнора Махмудовна** – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиси по вопросам женщин и гендерного равенства.*  
**Мусурманова Айниса Мусурмановна** – *доктор педагогических наук, профессор.*  
**Рахимова Нигина Хайруллаевна** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Сайдов Акмал Холматович** – *доктор юридических наук, профессор.*  
**Якубжанова Дилобар Батировна** – *доктор педагогических наук, доцент.*  
**Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна** – *кандидат медицинских наук.*  
**Умирзаков Баходир Хамидович** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Зияев Азамат Хамидович** – *доктор исторических наук, профессор.*  
**Абдусаматов Хасанбой Усмонжон угли** – *доктор психологических наук.*  
**Туракулов Улугбек Холбутаевич** – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

#### THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna**  
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

#### MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*  
**Saidova Galina Karimovna** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Shoumarov Ghayrat Bakhramovich** – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*  
**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Bekmuradov Adkham Sharipovich** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Marufova Gulnora Makhmudovna** – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*  
**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*  
**Rakhimova Nigina Khayrullayevna** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Saidov Akmal Kholmatovich** – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*  
**Yakubjanova Dilobar Batirovna** – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*  
**Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna** – *Candidate of Medical sciences.*  
**Umirzakov Bakhodir Khamidovich** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Ziyayev Azamad Khamidovich** – *Doctor of Historical sciences, Professor.*  
**Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli** – *Doctor of Psychological Sciences.*  
**Torakulov Ulugbek Holbutayevich** – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

#### XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

**Doktor Rashmini Koparkar,**  
*Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti*  
*Xalqaro tadqiqotlar maktabi,*  
*Javoharlal Neru universiteti,*  
*Nyu-Dehli, Hindiston*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna,**  
*Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,*  
*pedagogika fanlari doktori, professor*

**Doktor Priti Kesavan,**  
*Texnologiya fakulteti boshlig'i,*  
*London biznes va moliya maktabi,*  
*Singapur*

#### МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Доктор Рашмини Копаркар,**  
*Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,*  
*Школа международных исследований,*  
*Университет Джавахарлала Неру,*  
*Нью-Дели, Индия*

**Артамонова Екатерина Иосифовна,**  
*Челябинский государственный институт культуры,*  
*доктор педагогических наук,*  
*профессор*

**Доктор Прити Кесаван,**  
*Руководитель Технологического факультета*  
*Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур*

#### INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

**Dr. Rashmini Koparkar**  
*Assistant Professor*  
*Centre for Russian and Central Asian Studies*  
*School of International Studies*  
*Jawaharlal Nehru University*  
*New Delhi, India*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna**  
*Chelyabinsk State Institute of Culture*  
*Doctor of Pedagogical Sciences,*  
*Professor*

**Dr. Preethi Kesavan**  
*Head, School of Technology*  
*London School of Business and Finance, Singapore*

*MENEJMENT*

|                                                                                                                                  |   |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|
| <b>Abdullajanova D.S.</b> Kadrlar zaxirasini shakllantirishda gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik asoslari ..... | 4 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|

*SOTSILOGIYA*

|                                                                                                                                        |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Saipova M.</b> Migratsiya jarayonining globallashuvi: ijobiy va salbiy oqibatlar .....                                              | 10 |
| <b>Xonturayev B.</b> Gender institutlari bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari .....                | 16 |
| <b>Йулдошева У.</b> Гендерные аспекты развития социального предпринимательства в Узбекистане .....                                     | 25 |
| <b>Hashimova G.I.</b> Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari va kafolatlari ..... | 32 |

*MAHALLA VA HAYOT*

|                                                                                          |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Isamutdinov R.R.</b> Mahallaning ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati ..... | 37 |
|------------------------------------------------------------------------------------------|----|

*OILA VA JAMIYAT*

|                                                                                                                                        |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Abdiraimova Sh.A.</b> Yosh oilalarda ajralishlarning oldini olish yo'llari.....                                                     | 44 |
| <b>Rahimova M.</b> Yosh kelinlarning oilaviy hayotga moslashishi .....                                                                 | 49 |
| <b>Dovranova O.D.</b> Yangi taraqqiyot bosqichida oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy negizlarini shakllantirish..... | 53 |
| <b>Mahkamov U.A.</b> So'z va fikr erkinligini ta'minlashda dialog muloqot vositasi sifatida.....                                       | 58 |

*PSIXOLOGIYA*

|                                                                                                                            |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Рахимова И.И., Каримова Г.О.</b> Психологическая диагностика социальной адаптивности студентов с нарушением слуха ..... | 64 |
| <b>Абидова З.А.</b> Влияние семейного положения личности на уровень его толерантности .....                                | 69 |
| <b>Ishonkulova N.I.</b> Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizolar namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari .....      | 75 |
| <b>Raxmonova Z.N.</b> Ijtimoiy-individual qadriyatlar va emotsional intellekt xususiyatlari.....                           | 80 |

*PEDAGOGIKA*

|                                                                                                                 |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Ortikov U.X.</b> The socio-educational model in second language acquisition.....                             | 86  |
| <b>Yulchiyeva D.X.</b> Oila barqarorligini ta'minlashda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat .....      | 92  |
| <b>Аблакулов Ш.Д.</b> Формирование профессиональных креативных компетенций у будущих педагогов-психологов ..... | 98  |
| <b>Mirhamidova M.</b> Yapon xalqida tarbiyaning pedagogik asoslari .....                                        | 104 |
| <b>Safoyeva R.J.</b> Noto'liq oila farzandlarining ijtimoiylashuvi xususiyatlari.....                           | 109 |
| <b>Yakubov O.T.</b> Bolaning ijtimoiylashuvida oilaning o'ziga xos xususiyatlari .....                          | 114 |

*TARIX*

|                                                                                                                    |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Sharipova N.A.</b> XX asrning 40–90-yillarida O'zbekiston ta'lim tizimida gender tenglik masalalari tarixi..... | 118 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|



**Mirhamidova Malika,**  
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot  
instituti doktoranti

## YAPON XALQIDA TARBIYANING PEDAGOGIK ASOSLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yapon xalqi ta'lim va tarbiya tizimining pedagogik asoslari borasida fikr yuritilib, unda kunchiqar davlatning dunyo ta'lim standarti uchun namuna bo'la oladigan ta'lim jarayoniga oid davlat siyosati borasidagi qarorlar va farmonlar haqida ham mushohada yuritiladi. O'z tarixida ta'lim tizimidagi islohotlar evaziga yuqori taraqqiyotga erishgan mamlakatlar tajribasini o'rganish bugungi kunda mamlakatimiz ta'limida kechayotgan o'zgarishlarni teranroq tushunishga yordam beradi. Bizning Yaponiya tajribasiga murojaat qilishimizning boisi yapon millatining urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini, oilaviy munosabatlari xalqimiz qadriyatlariga yaqinligidir.

**Tayanch so'zlar:** ta'lim va tarbiya, asos, Yaponiya, oila, islohatlar, urf-odatlarini, qarorlar va farmonlar.

**Аннотация.** В статье рассматриваются педагогические основы системы образования и обучения японского народа, а также указы и постановления Японии в отношении образовательного процесса, которые могут стать образцом мирового образовательного стандарта. Изучение опыта стран, добившихся высокого развития благодаря реформам системы образования в своей истории поможет лучше понять изменения, происходящие в образовании нашей страны сегодня. Причина нашего обращения к опыту Японии состоит в том, что обычаи, национальные ценности и семейные отношения японской нации близки ценностям нашего народа.

**Ключевые слова:** образование и воспитание, основание, Япония, семья, реформы, традиции, указы и постановления.

**Annotation.** The article discusses the pedagogical foundations of the education and training system of the Japanese people, as well as the decrees and regulations of Japan regarding the educational process, which can become a model of the world educational standard. Studying the experience of countries that have achieved high development thanks to reforms of the education system in their history will help to better understand the changes taking place in the education of our country today. The reason for our appeal to the Japanese experience is that the customs, national values and family relationships of the Japanese nation are close to the values of our people.

**Keywords:** education and upbringing, foundation, Japan, family, reforms, traditions, decrees and regulations.

**Kirish.** Insonning shaxs bo'lib shakllanish jarayoni uning milliy an'anaviy madaniyatiga oshno bo'lishi kichik yoshdan boshlab qabul qilingan me'yorlarga o'rgatilishida o'zining ijobiy natijasini beradi. Yaponiyada bolalarda o'z mamlakati an'alariga nisbatan bog'liqlik hissinii shakllantirish maqsadida ular uchun juda ko'plab bayramlar tashkil etiladi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Koretskaya S.V. An'anaviy madaniyatlarda oilaviy ta'lim: Yaponiya va Shimoliy Kavkaz materiallari haqida / Ped. fan. nomz. ...dis. – Vladikavkaz, 2013.

Barchamizga ma'lumki, Yaponiyaning hozirgi vaqtdagi dunyo hamjamiyatida barcha sohalarda o'ziga xos o'ringa egaligi ko'rishimiz mumkin, hattoki ta'limda yetakchilik qilayotgani ham bunga yaqqol misol bo'la oladi. Barcha millatlarga o'rnak sifatida yaponlarda ham farzandlariga g'amxo'rlik, kelajak avlodning barcha muammolariga alohida e'tibor, ota-onalarning farzandi taqdiri uchun yuqori mas'uliyati, oilaviy an'analarga bo'lgan hurmat kabi sifatlarini qabul qilsa arzigulik.

Kunchiqar mamlakatning ta'lim tizimi tarixiga nazar solsak, har bir davlatda bo'lgani kabi ularda ham

mazkur sohada bir necha qaror va farmonlar qabul qilinganki, ular xalq ravnaqi yo'lida yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda asosiy tamoyil vazifasini o'tayapti, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Quyida fikrimizning tasdig'i sifatida ularning ayrimlarini keltirishni o'rinli deb bildik. Jumladan, Yaponiyada majburiy bo'lmagan maktabgacha ta'lim ko'pi bilan uch yil davomida tarbiya beradigan bolalar bog'chalarini tomonidan amalga oshiriladi. O'qitish bo'yicha yo'riqnomalar (**gakusushidoyoryo**) Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiya vazirligi (MEXT) tomonidan belgilanadi, biroq o'qitish uslubi bir-biridan tubdan farq qiladi. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, ushbu mamlakatda Majburiy ta'limga nisbatan xususiy sektorning ulushi ustunlik qiladi, ya'ni maktab o'quvchilarining deyarli 80 foizi ushbu sektordagi muassasalarda ta'lim oladilar<sup>2</sup>. So'nggi yillarda Yaponiyaning ta'lim tizimida olti yillik bilim olish darajasi 60%ni tashkil etgan. Bu jarayon 1993-yilda biroz pasaygan, 2005-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 58,4% ga yetgan. Qabul qilish darajasining nisbatan pastligi sababini maktabgacha ta'lim muassasalari ham ta'minlanganligi bilan izohlash mumkin. Buni alohida turdagi muassasalarda, ya'ni bir yoshdan kichik bolalarni boshlang'ich maktabga qadar (olti yil) va bolalar bog'chalariga qaraganda kuniga ko'proq qabul qiladigan bolalar sonidan ortib ketganligida ko'rishimiz mumkin<sup>3</sup>.

Bundan tashqari, bolalar bog'chasi alohida ta'lim kasbiga ega bo'lmasa-da, uning dasturida belgilanishicha, bu davr maktabgacha bo'lgan so'nggi uch yillikni tashkil etadi. Mazkur dasturga boshlang'ich sinflarning dasturiga juda yaqinligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu o'xshashlik, ikkala turdagi muassasalardagi tarbiyalanuvchilarni guruhlariga ajratish yoki birlashtirish ishlarida munozaralarni keltirib chiqarganligi sababli, 2006-yilning iyun oyida parlamentda yaqinda "tasdiqlangan bolalar bog'chasi" (**ninka-**

**kodomoen**) tizimi qabul qilinishiga va tizim o'sha yilning oktabr oyidan boshlab amalga oshirilishiga sabab bo'ldi<sup>4</sup>.

Yuqorida keltirilgan hukumat qarorlari va farmonlarning qabul qilinishi va amaliyotga tatbiq etilishi mazkur davlatning pedagogik asoslarining yaratilishiga sabab bo'ldi.

Yaponiyada bir qancha G'arb davlatlarini o'rnak qilib olgan zamonaviy ta'lim tizimining haqiqiy ma'noda joriy etilishi XIX asrning ikkinchi yarmida boshlandi. Shuning uchun Yaponiyada modernizatsiyaning kelishi nisbatan kech bo'ldi, ammo Yaponiya ijtimoiy-madaniy va ekologik omillar (dastlabki shartlar) bilan taqdirlanish baxtiga sazovor bo'lganligi sababli, ta'lim qisqa vaqt ichida juda tez rivojlandi.

**Asosiy qism.** O'tgan 260 yil davomida Yaponiya Tokugava syogunati (1603–1968) hukmronligi davrida mamlakatni tashqi dunyodan yopiq holda saqlash siyosati olib borildi, davlatda tinchlik va barqarorlik hukm surdi. Bu davrda yapon xalqi yuksak madaniy yetuklikka erisha oldi, hatto oddiy xalq orasida ham savodxonlik darajasi bu davrda jahon andozalari darajadiga yetdi<sup>5</sup>.

Maqolaning asosiy qismida Yaponiya ta'lim tizimining bugungi taraqqiyotiga sabab bo'lgan omillar va ularning ildiziga nazar solishni o'rinli deb bildik. Ushbu davlatda ta'limning qadimgi shakllari qay tarzda taraqqiy topgani hamda ular jamiyatning madaniy va ma'naviy an'alarida chuqur ildiz otgani barchani qiziqtirishi tabiiy hol, albatta. Kunchiqar yurtning qadimgi ta'limida asosiy e'tibor, dastlab, zodagonlar sinfiga odob-axloq, adabiyot, xattotlik va boshqa madaniy jihatlarni o'rgatishga qaratilgan edi. Bu jarayon, birinchi navbatda, zodagon oilalarning mulki bo'lgan va Imperator saroyi yoki Buddist ibodatxonalari o'tkazilgan. Yaponiyadagi ta'limning dastlabki shakllaridan biri Xitoy madaniyati va konfutsiylik ta'sirida ostida

<sup>2</sup> Ta'limni jonlantirish kengashi "Ta'limni butun jamiyatda jonlantirish – Xalq ta'limini jonlantirish sari qadam. Birinchi hisobot" (24-yanvar 2007-yil) // <https://www.kantei.go.jp/jp/shingi/kyouiku/kettei/070124honbun.pdf>

<sup>3</sup> Ta'lim bo'yicha markaziy kengash, "Majburiy ta'limning yangi davrini yaratish (ma'ruza)" 2000-yil (2005-yil 26-oktyabr), 1-bob: Ta'lim maqsadlarini oydinlashtirish, natijalarga erishish va sifatni ta'minlash. Majburiy ta'limning vazifasi Majburiy ta'limni oydinlashtirish va takomillashtirish. ta'lim mazmuni // [https://www.mext.go.jp/b\\_menu/shingi/chukyo/chukyo0/toushin/attach/1347057.htm](https://www.mext.go.jp/b_menu/shingi/chukyo/chukyo0/toushin/attach/1347057.htm)

<sup>4</sup> Milliy akademik yutuqlar so'rovlarini amalga oshirish usullari bo'yicha ekspert tadqiqot guruhi "Milliy akademik yutuqlar so'rovlarini amalga oshirishning o'ziga xos usullari to'g'risida hisobot" 2006-yil 25-aprel. [https://www.mext.go.jp/b\\_menu/shingi/chousa/shotou/031/toushi/attach/1397244.htm](https://www.mext.go.jp/b_menu/shingi/chousa/shotou/031/toushi/attach/1397244.htm)

<sup>5</sup> Milliy akademik yutuqlar so'rovlarini amalga oshirish usullari bo'yicha ekspert tadqiqot guruhi "Milliy akademik yutuqlar so'rovlarini amalga oshirishning o'ziga xos usullari to'g'risida hisobot" 2006-yil 25-aprel. [https://www.mext.go.jp/b\\_menu/shingi/chousa/shotou/031/toushi/attach/1397244.htm](https://www.mext.go.jp/b_menu/shingi/chousa/shotou/031/toushi/attach/1397244.htm)

bo'lib, unda ilm, axloq va iyerarxiyaning muhimligi ta'kidlangan. Natijada bu hukmron sinfning axloqiy va intellektual rivojlanishiga qaratilgan ta'lim tizimining yo'lga qo'yilishiga olib kelgan. Bu tizim, asosan, eksklyuziv bo'lib, oddiy aholini keng qamrab olmagan.

Yaponiyada buddizmning tarqalishi ta'limga ham o'zining katta ta'sirini o'tkazdi, albatta. Buddist monastirlari ilm markazlariga aylantirilib, u yerda rohiblar va zodagonlar Budda bitiklari, adabiyoti va xitoy mumtoz adabiyotlarini o'rgana boshladilar. Zero, bu ta'limotda ham ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash, jamiyat ravnaqi yo'lida bilim olishga intilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Usha davrlarda zodagon oilalar va diniy muassasalarda rasmiy ta'limdan tashqari, amaliy ko'nikmalar va kasbiy tayyorgarlikka ham e'tibor qaratilgan. Bu shogirdlikning turli shakllarini o'z ichiga olgan bo'lib, unda odamlar dehqonchilik, duradgorlik, to'quvchilik va kundalik hayot uchun zarur bo'lgan boshqa ko'nikmalari o'rganilgan.

Feodallar davrida samuraylar sinfi ham jang san'atlari, harbiy strategiya va bushido kodeksiga urg'u beradigan o'z ta'lim tizimini ishlab chiqdi. Ta'limning ushbu shakli urush uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar va fikrlashni rivojlantirishga va samuraylar sinfning mas'uliyatiga qaratilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, qadimgi Yaponiyada ta'lim, asosan, ijtimoiy tabaqa va jinsga qarab ajratilgan. Elita erkaklar rasmiy ta'lim olish imkoniga ega bo'lsa-da, ayollar va quyi sinflar rasmiy ta'lim olish uchun cheklangan imkoniyatlarga ega edi. Biroq norasmiy ta'lim, shu jumladan, oilalar va jamoalarda an'analar, urf-odatlar va amaliy ko'nikmalarni o'tkazish jamiyatning barcha a'zolari uchun ta'limning asosiy jihati edi. Umuman olganda, Yaponiyadagi ta'limning qadimiy shakllari o'sha davrning madaniy, diniy va ijtimoiy tuzilmalari bilan chuqur bog'langan. Ular yapon jamiyatining qadriyatlari, ustuvor yo'nalishlari va an'alarini aks ettirib, hayotning intellektual, axloqiy va amaliy jihatlarini qamrab olgan ta'limga yaxlit yondashuvni ta'kidladilar.

XVII asr boshida boshlangan va taxminan, 260 yil davom etgan Tokugava syogunati hukmronligi davri "Edo davri" deya nomlana boshladi, chunki uning kuch bazasi Edo (hozirgi Tokio) shahrida joylashgan edi. Syogun siyosiy jihatdan muhim joylar sifatida Edo, Osaka va Kioto ustidan to'g'ridan

to'g'ri boshqaruvni amalga oshirdi, mamlakatning qolgan qismi esa 250 ga yaqin feodal domenlariga bo'lingan bo'lib, ularning har biri syogunga sodiqlik qasamyodi qilgan feodal tomonidan boshqarilgan. "Edo davri"da Yaponiya tashqi dunyoni istisno qilish siyosatini olib borgani sababli xorijiy davlatlar bilan savdo va aloqa amalda taqiqlangan edi. XIX asrning boshlarida "Edo davri" nihoyasiga yetar ekan, Tokugava syogunatining siyosiy boshqaruvi tobora kuchayib borayotgan tanqid nishoniga aylandi. Ta'lim Yaponiyada oila, jamiyat va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan "iloh" darajasiga ko'tarilgan, chunki mamlakatda qabul qilingan "umrbod yollanish" tamoyili insonga jamiyatda munosib joyni egallash uchun faqat bir marta imkoniyat beradi va yaxshi ta'lim olish shu imkoniyatning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun kafolat yaratadi. Yapon maktablarining an'anaviy maqsadi ta'lim berishdan ko'ra ko'proq tarbiyalashga qaratilgan, zero, xalq orasida "olim bo'lishdan ko'ra yaxshi odam bo'lish afzalroqdir", degan ibora mavjud. Ushbu maqsadni kichik maktab yoshidagi sinflarda o'quv rejalariga kiritilgan maxsus fanlar orqali amalga oshirish ko'zda tutilganligida ko'rishimiz mumkin<sup>6</sup>.

O'z tarixida ta'lim tizimidagi islohotlar evaziga yuqori taraqqiyotga erishgan mamlakatlar tajribasini o'rganish bugungi kunda mamlakatimiz ta'limida kechayotgan o'zgarishlarni teranroq anglashga yordam beradi. Biz Yaponiya tajribasiga murojaat qilishimizning boisi shundaki, yapon millatining urf-odatlari, milliy qadriyatlari va oilaviy munosabatlari xalqimiz qadriyatlariga yaqindir. Har bir davlatning ta'lim tizimining yuksalishida, uning tarixida sodir bo'lgan hamda ajdodlardan avlodlarga me'ros bo'lib kelayotgan boy tarixiy, ma'naniy va madaniy boyliklari alohida o'rin tutadi. Aslida, yapon tili turkiy tillar mansub bo'lgan Oltoy tillari oilasiga kiradi. Shuning uchun xalqlarimiz orasida umumiylik bo'lishi tabiiy holdir. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Yaponiya ta'limidagi islohotlar 1867–1868-yillarda boshlangan bo'lib, bu davr tarixda "**Meydzi erasi**" deb yuritiladi. Mamlakatda amalga oshirilgan keng ko'laml

<sup>6</sup> Nakasone Ya. Yaponiyaning XIX asrdagi davlat strategiyasi. Yapon tilidan tarj. – Moskva, 2011. [https://www.jica.go.jp/Resource/jica-ri/IFIC\\_and\\_JBICI\\_Studies/english/publications/reports/study/topical/educational/pdf/educational\\_02.pdf](https://www.jica.go.jp/Resource/jica-ri/IFIC_and_JBICI_Studies/english/publications/reports/study/topical/educational/pdf/educational_02.pdf)

islohotlar boshida Yaponiyaning 122-imperatori – Musuxito turadi. 1872-yilda Yaponiyada **“Ta’lim haqida qonun”** qabul qilinib, unda Yaponiya ta’limi G’arb ta’limi bilan uyg’unlashtirildi. Yaponiya Konstitutsiyasining 26-moddasiga 1947-yilda o’zgartirish kiritilgan bo’lib, unga ko’ra, ta’lim olish huquqi quyidagicha tahrir etilgan:

“Barcha qonunda ko’zda tutilgan tartibda, o’z qobiliyatiga mos ravishda ta’lim olish huquqiga ega. Barcha o’z qaramog’ida bo’lgan bolalarning majburiy ta’lim olishini ta’minlashi zarur. Majburiy ta’lim bepul amalga oshiriladi”<sup>7</sup>.

Yuqoridagi keltirilgan misoldan ko’rinib turibdiki, kunchiqar mamlakatning ta’limga oid masalalari davlat siyosati darajasiga ko’tarilganini ko’rish mumkin. Yaponlarda ham tarbiya va ta’limga oid ishlar jamiyatning eng kichik bo’g’ini hisoblanadi, ya’ni oiladan boshlanishligini guvohi bo’lishimiz tabiiy hol albatta. Huddi o’zbek oilalaridagi bo’lgani kabi yapon oilalarida ham qiz va o’g’il bolalar tarbiyasi, ta’limiga alohida e’tibor qaratilishini ko’rishimiz mumkin. Ularning oilasidagi milliy qadriyatlar o’zbek oilalarinikiga o’xshash. Ya’ni katta yoshlilarga nisbatan hurmat-ehtirom, o’g’il bolalar va qiz bolalar tarbiyasiga alohida yondashuv (o’g’il bolalarni oila tayanchi sifatida tarbiyalashsa, qiz bolalarni ko’proq uy yumushlariga o’rgatishadi) mavjud. O’g’il bolalar uchun uyushtiriladigan “o’g’il bolalar kuni” milliy bayramida turli rangdagi “karp” (sazan) balig’i rasmini osmonga ko’tariladi.

Yapon madaniyati ta’limida pedagogik intizom, hurmat va bilimga intilishni ta’kidlaydigan an’anaviy va zamonaviy falsafalar chuqur ildiz otgan. Yaponiya jamiyatida ta’lim doimo markaziy o’rin tutgan va mamlakatda ta’limni shaxsiy va jamiyat taraqqiyoti vositasi sifatida qadrlashning uzoq tarixi mavjud. Yaponiyadagi eng ta’sirli pedagogik falsafalardan biri bu konfutsiylik bo’lib, u mamlakatning an’anaviy ta’lim tizimiga sezilarli ta’sir ko’rsatgan. Obro’-e’tiborga hurmat, farzandlik taqvosi, ta’limning o’z-o’zini takomillashtirish vositasi sifatidagi ahamiyati kabi konfutsiy qadriyatlari asrlar davomida Yaponiya ta’lim amaliyotiga chuqur singib, hurmat, mehnatsevarlik va axloqiy rivojlanishga urg’u berish ularning ta’lim

tizimidagi qadriyatlar va umidlarni shakllantirishda davom etmoqda.

Yaponiyadagi yana bir nufuzli pedagogik falsafa – bu 教育 (**koyoiku**) – inglizchadan “education” degan ma’noni anglatuvchi tushunchadir. Koyoiku Yaponiya jamiyatidagi ta’limning kengroq maqsadlarini, jumladan, shaxslarning axloqiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishini o’z ichiga oladi. Ta’limga bunday yaxlit yondashuv Yaponiya jamiyatida chuqur singib ketgan uyg’unlik, jamoa va shaxsiy o’sish kabi kengroq madaniy qadriyatlarni aks ettiradi.

Zamonaviy davrda Yaponiya yuqori darajada tuzilgan va qat’iy ta’lim tizimini ishlab chiqqan va unda akademik yutuqlar va standartlashtirilgan testlarga katta e’tibor qaratib kelinadi. Akademik mukammallikka bo’lgan bunday e’tibor Yaponiyaning matematika, fan va texnologiya kabi sohalarida yuqori natijalarga erishgan talabalarni yetishtirish obro’siga hissa qo’shdi. Yaponiya ta’lim tizimi o’zining uzoq maktab kunlari, qat’iy o’quv dasturi, intizom va mehnatsevarlikka katta e’tibor berishi bilan mashhur. Yaponiya hukumati ta’lim tizimini shakllantirishda, o’qish va o’qitish uchun standartlar va ko’rsatmalarni belgilashda muhim rol o’ynaydi. Ta’lim, madaniyat, sport, fan va texnologiya vazirligi (MEXT) milliy ta’lim tizimini nazorat qiladi va o’quv rejasi, maktab boshqaruvi va o’qituvchilar malakasini oshirish bilan bog’liq siyosatlarni belgilash uchun javobgar hisoblanadi. MEXT ta’siri ham davlat, ham xususiy ta’lim muassasalariga tarqaladi va uning siyosati Yaponiyadagi kengroq pedagogik jarayonni shakllantiradi.

**Yakuniy qism.** Xulosa o’rinda aytish mumkinki, yapon maktablarida yaxlit ta’limni rivojlantirishga, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rag’batlantirishga e’tibor kuchaytirilayotganini, ta’lim tizimini isloh qilish bo’yicha olib borilayotgan sa’y-harakatlar o’quvchilarning individualligini tarbiyalash, dunyoqarashini rivojlantirish, o’rganish, eslab qolish va testlarga tayyorgarlik ko’rishdan tashqari har tomonlama yondashishni targ’ib qilishga qaratilganini alohida ta’kidlab o’tmoqchimiz.

Yapon ta’limining pedagogik asoslari ham mamlakatning ma’naviy-axloqiy tarbiyaga o’ziga xos yondashuvini aks ettiradi. Akademik fanlardan tashqari, yuqorida yapon maktablari o’quv dasturiga axloqiy ta’limi – “dōtoku”, ya’ni bunda empatiya,

<sup>7</sup> Koretskaya S.V. An’anaviy madaniyatlarda oilaviy ta’lim: Yaponiya va Shimoliy Kavkaz materiallari haqida / Ped. fan. nomz. ...dis. – Vladikavkaz, 2013.

mas'uliyat va axloqiy qarorlar qabul qilish kabi qadriyatlarni singdirishga qaratilganini aytib o'tdik. Xarakterni rivojlantirishga bo'lgan bunday e'tibor jamiyatga ijobiy hissa qo'shishi mumkin bo'lgan har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan kengroq majburiyatni aks ettiradi. Ta'lim usullari nuqtayi nazaridan olib qaralsa, Yaponiya ta'lim tizimi o'qituvchiga yo'naltirilgan ta'limning kuchli an'analariga ega bo'lib, bu yerda o'qituvchilar bilim berish va o'quvchilarning bilim olishiga rahbarlik qilishda asosiy rol o'ynaydi. Bu an'anaviy yondashuv asta-sekin rivojlanib bormoqda va zamonaviy yapon ta'limida o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim, hamkorlikda muammolarni hal qilish va so'rovga asoslangan o'qitish usullarining ahamiyati tobora ortib borayotganidan dalolatdur.

Umuman olganda, yapon madaniyatidagi ta'limning pedagogik asoslari mamlakatning

boy tarixi, madaniy qadriyatlari, fuqarolarning intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga intilishining aksidir. An'anaviy ta'sirlar ta'lim muhitini shakllantirishda davom etar ekan, Yaponiya ham tez o'zgaruvchan global jamiyatda talabalarni muvaffaqiyatga tayyorlashga qaratilgan o'qitish va o'rganishda innovatsion yondashuvlarni qo'llaydi.

Xususan, bu davlatdagi ta'limning qadimiy shakllari o'sha davrning madaniy, diniy va ijtimoiy tuzilmalari bilan chuqur bog'langanligi bilan alohida ahamiyatlidir. Ular yapon jamiyatining qadriyatlari, ustuvor yo'nalishlari va an'analarini aks ettirib, hayotning intellektual, axloqiy va amaliy jihatlarini qamrab olgan ta'limga yaxlit yondashuvni ta'kidlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ta'limni jonlantirish kengashi "Ta'limni butun jamiyatda jonlantirish – Xalq ta'limini jonlantirish sari qadam. Birinchi hisobot" (24 yanvar 2007 yil) // <https://www.kantei.go.jp/jp/singi/kyouiku/kettei/070124honbun.pdf>.
2. Ta'lim bo'yicha markaziy kengash, "Majburiy ta'limning yangi davrini yaratish (ma'ruza)" 2000 yil (2005 yil 26 oktyabr), 1-bob: Ta'lim maqsadlarini oydinlashtirish, natijalarga erishish va sifatni ta'minlash. Majburiy ta'limning vazifasi Majburiy ta'limni oydinlashtirish va takomillashtirish. ta'lim mazmuni // [https://www.mext.go.jp/b\\_menu/shingi/chukyo/chukyo0/toushin/attach/1347057.htm](https://www.mext.go.jp/b_menu/shingi/chukyo/chukyo0/toushin/attach/1347057.htm)
3. Milliy akademik yutuqlar so'rovlarini amalga oshirish usullari bo'yicha ekspert tadqiqot guruhi "Milliy akademik yutuqlar so'rovlarini amalga oshirishning o'ziga xos usullari to'g'risida hisobot" 2006-yil 25-aprel. [https://www.mext.go.jp/b\\_menu/shingi/chousa/shotou/031/toushi/attach/1397244.htm](https://www.mext.go.jp/b_menu/shingi/chousa/shotou/031/toushi/attach/1397244.htm)
4. Milliy akademik yutuqlar so'rovi bo'yicha ekspertlar yig'ilishi (2018-yil 22-avgust) (Journal of the Japan International Information Society "International Information Research" 20-jild №1 [Research Paper])
5. Yaponiya: universitet boshqaruvini isloh qilish. Sevr ta'limining xalqaro sharhida chop etilgan, 70 | 2015-yil, dekabr.
6. Sharqiy Osiyo: oliy ta'lim sohasida hamkorlikni rivojlantirish. Sevr ta'limining xalqaro sharhida chop etilgan, 60 | 2012-yil, sentabr.
7. Yaponiyada zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishi [To'liq matn] An'anaviy qadriyatlar va tizimni modernizatsiya qilish o'rtasida. Sevr ta'limining xalqaro sharhida chop etilgan. 2014-yil.
8. Manabu Sato, 2008-yil. "Yangi o'quv rejalari bo'yicha akademik yutuqlar siyosati dilemmasi" – Ta'lim siyosati assotsiatsiyasining yillik hisoboti 15-jild.
9. Koretskaya S.V. An'anaviy madaniyatlarda oilaviy ta'lim: Yaponiya va Shimoliy Kavkaz materiallari haqida / Ped. fan. nomz. ...dis. – Vladikavkaz, 2013.
10. Nakasone Ya. Yaponiyaning XIX asrdagi davlat strategiyasi. Yapon tilidan tarj. – Moskva, 2011. [https://www.jica.go.jp/Resource/jica-ri/IFIC\\_and\\_JBICI\\_Studies/english/publications/reports/study/topical/educational/pdf/educational\\_02.pdf](https://www.jica.go.jp/Resource/jica-ri/IFIC_and_JBICI_Studies/english/publications/reports/study/topical/educational/pdf/educational_02.pdf)
11. Toshiaki Kavaguchi (2019). "Yaponiyadagi akademik qobiliyat bo'yicha tadqiqot tendentsiyalari". Fukuoka ta'lim universiteti, Kaname. № 68, 4-jild, 111.
12. Toshiro Kabayama (2021). "Boshlang'ich maktab yapon tili ta'limida tasvirlash qobiliyatiga oid istiqbollar: Milliy akademik qobiliyat va o'quv vaziyati so'rovining 10 yillik tahlili orqali". Otsuma ayollar universiteti, Inson hayoti madaniyati tadqiqot instituti "Inson hayoti madaniyatini tadqiq qilish", 2021 (31).

“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»  
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE

## MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии*  
*Society, Gender and Family in Central Asia*

xalqaro ilmiy jurnali

*международный научный журнал*

*international academic journal*

2024/1 (10)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli  
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining  
dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga  
pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun  
ilmiy maqolalar e‘lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

**MUASSIS:**

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**  
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**  
Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O’.,**  
**Razzakova N., Sobirova E.,**  
**Jabborov U.**  
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**  
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**  
Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan  
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy  
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 23.03.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.